

**PSIXOLOG TALABALARDA KASBIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING  
PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

Sadikova Umida Botirovna

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[temperament@mail.ru](mailto:temperament@mail.ru) tel: 94 230 86 88

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungu kunda barcha yoshlarning asosiy maqsadi o'qishga bo'lgan qiziqishi va ularning oliv ta'lif muassasalarida o'z mutaxassisligini egallashda o'zlaridagi qiyinchiliklarning kelib chiqishi va yetuk mutaxassis bo'lishlarida yordam beruvchi tavsiylar va takliflar bilan tashishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lif, talaba, psixolog, diqqat, intellekt, emotsiya, mutaxassis.

Bugungi kunning eng asosiy masalalardan biri oliv o'quv yurtlaridagi ta'lif-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishdandir. Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lif-tarbiya jarayonlari samarali amalga oshirish uchun talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ilmiy pedagogik metodlarni to'g'ri o'tkazish zarur va bu jarayon umumta'lif maktabi o'qituvchisi va o'quvchisi o'rtasidagi, yoki litsey va texnikum o'qituvchisi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlardan farq qilishi aniq, bu bir tomondan ular o'rtasidagi yosh xususiyatlariga, ijtimoiy-huquqiy mavqelariga bog'liq bo'lsa, auditoriyada "ustoz-muallim" va "shogird-tinglovchi" tarzida, auditoriyadan tashqarida do'stona, aka-uka, hatto "ota-bola" munosabatlariiga yaqin do'stona, dilkash bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayni paytda ushbu tizimda, mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi kadrlarni yetishtirish aniq vazifa sifatida qaralib kelinmoqda. Ayni damda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo'lgan vazifalarni qo'yadi, bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulatoryori, axloqiy sifatlar alohida ahamiyat kash etadi.

Lekin, ayni bugungi kungacha oliy maktab psixologiyasi, undagi talaba va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi psixologik muhit chuqur tahlil qilinmagan. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri - ijtimoiy yetuklikning jadal surat bilan ro'yobga chiqishidir. Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, 17-21 (25) yoshni o'z ichiga oladi va o'zining individual xususiyatlariga ega. Bu davrda o'spirin o'zining ruhiy inqirozi yoki tanglikni boshidan kechiradi, kattalarning turli rollarini bajarishga urinib ko'radi, turmush tarzining yangi jihatlariga asta-sekin ko'nika boshlaydi.

Bunda yetuklik shaxsdan zarur aqliy qobiliyat, hayot va faoliyatda bajariladigan turli rollarni egallashni talab qiladi. Ayniqsa, aqliy yetuklik (kamolot) muhim ahamiyat kasb etib, talabaning darslarga o'z vaqtida qatnashishi, berilgan vazifalarni bajarishi intellekt rivoji dinamikasiga negiz bo'la olmaydi, bu esa aqliy taraqqiyotni diagnostika qilish uchun yetarli emasdir.

Yoshlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq qilish, ilmiy jihatdan bilimlarni o'zlashtirish hamda olgan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib, barkamol avlod tarbiyasi, uning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o'rganish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish asosiy muammo hisoblanadi.

Odatda mavzu talabaga ma'lum bir hodisalar ketma-ketligi sifatida ko'rindi. O'qituvchi ma'lum bo'lgan hodisalarning har birini tushuntiradi, u bilan ishslashning tayyor usulini beradi. Bolada bularning barchasini eslab, ko'rsatilgan tarzda harakat qilishdan boshqa iloji yo'q. Mavzuning bunday ochilishi bilan unga qiziqishni yo'qotish xavfi katta. Aksincha, mavzuni o'rganish bolaga barcha alohida hodisalarning mohiyatini ohib berish orqali o'tsa, bu mohiyatga tayangan holda, o'quvchining o'zi ham muayyan hodisalarni oladi, o'quv faoliyati u uchun ijodiy xususiyatga ega bo'ladi va shu bilan uning ongini uyg'otadi. mavzuni o'rganishga qiziqish. Shu bilan birga, uning mazmuni ham, u bilan ishslash uslubi ham ushbu fanni o'rganishga ijobiy munosabatda bo'lishi mumkin. Ikkinchi holda, o'rganish jarayoni tomonidan motivatsiya mavjud. O'qituvchi va talaba bilan hamkorlikning uyg'unligi muhimdir. Hammasi birgalikda bolalarda kognitiv motivatsiyani shakllantirishga olib keladi.

Barcha oliy ta'lim muassasalarining yo'nalishlari talabalarining kasbiy sifatlarini rivojlantish borasida ko'p qiziqarli ilmiy maqola va adabiyotlarda ko'rsatmalar berib o'tilgan. Ayni vaqtda hozirgi kun psixologlarining kasbiy faoliyatini yanada rivojlantish maqsadida psixolog talabalarning kompetensiyasiga urg'u berib o'tsak. Psixolog talabalarning kasbiy faoliyatida barcha talabalarning o'qib o'zlashtirayotgan fanlarning muhimligi bilan birga ulardag'i aniq va yaqqol namoyon bo'lishi zarur bo'lgan kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Ulardagi kasbiy sifatlarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi sifatlar quyidagilar:

-diqqat kontsentratsiyasi va barqarorligining yuqori darjasini (uzoq muddat bir predmetga diqqatini qarata olishi);

-diqqat ko'chuvchanligi va taqsimlanuvchanligi (bir vaqtning o'zida bir necha predmetga diqqatni qaratish yoki bir necha faoliyat bilan bir vaqtning o'zida shug'ullanish, bir predmetdan boshqasiga tez ko'chishi yoki bir faoliyatdan boshqa faoliyatga o'tish);

-obrazli so'z mantiqiy xotiraning rivojlanganligi

-obrazli tafakkurning rivojlanganligi

-mantiqiy tafakkurning rivojlanganligi

-mnemik (qisqa va uzoq muddatli xotira) jarayonlarining rivojlanganligi

-kommunikativ qobiliyatlar shaxslararo munosbatlarga kirishish qobiliyati;

-tinglash qobiliyati

-verbal qibiliyatlar (aniq, tushunarli, qisqqa gapirish);

-oratorlik qobiliyati (obrazli va so'z-mantiqiy xotiraning rivojlangaanligi);

-o'zini -o'zi boshqara olish qobiliyat.

Shuningdek, psixolog talabalarning o‘zining hayoti davomidagi shaxsiy xususiyatlari va qiziqishlarining ham ahamiyati beqiyos. Quyida ularning bir qismini yoritilgan:

- nazokatlilik va tarbiyalanganlik
- hamdard bo‘la olish (empatiya)
- tashabbuskor
- maqsadga intiluvchan qat’iyilik
- intuitsiya, hodisalarni oldindan bashorat qila olish
- ziyraklik
- sir saqlay olish
- ijodkorlik
- bilimdonlik

Yuqorida keltirib o‘tilgan tavsiyaalar bilan birga kasbiy faoliyat davomida yuqori cho‘qqilarni zabit eta olsa, aksincha, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatiga to’sqinlik qiluvchi sifatlarni ba’zilari quydagilarni tashkil etadi.

- psixik va emotsiyonal barqarorlik
- agressiya
- odamovilik
- qat’iyatsizlik
- insonlar bilan ishslash qobiliyatining rivojlanmaganligi
- o‘zgalar fikrini tinglamaslik
- tafakkurning rigidligi
- inellektni pastligi kabi tushunchalar kasbiy rivojlanishda bir qancha muammolarni paydo qilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.G‘OZIYEV “UMUMIY PSIXOLOGIYA” Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik I -kitob 2 Toshkent - “Universitet” – 2002
2. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova “Umumiy psixoloysi”-Toshkent, 2009.-334-b.
3. N.I.Xalilova.,N.I.Ismailova.,U.A.Oripova “Kasblar professiogrammasi”- Toshkent, 2015.-135-b.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-ijtimoiy-faollik-rivojlanishining-psixologik-mexanizmlari>.